



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 203-211 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SAMARALI INSTITUTLARNI RIVOJLANTIRISH TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA



Murtozayev Sardorbek Abdijalil o'g'li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
tayanch doktoranti
smurtozoev@uwed.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishda institutsional omillarning muhim ahamiyati ochib berilgan. Global boshqaruv bo'yicha konsalting kompaniyasi Kearney (*The Kearney Foreign Direct Investment Confidence Index*) hamda Jahon Banki (*2019 Global Investment Competitiveness (GIC) Survey*) tomonidan xorijiy investorlardan olingan so'rovlar natijasida so'nggi yillarda investorlar investitsion qarorlarni qabul qilishda qanday omillarga e'tibor berishayotgani tahlil qilingan. Mazkur tahlil asosida mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha kerakli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. TTXI, institutlar, institutsional omillar, Kearney To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishonch indeksi, 2019-yilgi Global investitsiya raqobatbardoshligi so'rovi

THE ESTABLISHMENT OF EFFECTIVE INSTITUTIONS STANDS AS A PIVOTAL FACTOR IN ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENT

Murtozaev Sardorbek
PhD student, UWED
smurtozoev@uwed.uz

Abstract. This article underscores the pivotal role of institutional factors in proactively enticing foreign direct investment (FDI). Drawing insights from surveys conducted on foreign investors by prominent entities such as the global management consulting company Kearney (*The Kearney Foreign Direct Investment Confidence Index*) and the World Bank (*2019 Global Investment Competitiveness (GIC) Survey*), we delve into the factors that have significantly influenced investment decisions in recent years. Through a comprehensive analysis of these factors, we have formulated essential proposals and recommendations aimed at enhancing the investment attractiveness of the nation.

Keywords: FDI, Institutions, Institutional Factors, Kearney Foreign Direct Investment Confidence Index, Global Investment Competitiveness Survey 2019.

СОЗДАНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ ИНСТИТУТОВ ЯВЛЯЕТСЯ КЛЮЧЕВЫМ ФАКТОРОМ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ

Муртозаев Сардорбек Абдижалилович

докторант, УМЭД

smurtozoev@uwed.uz

Аннотация. В данной статье подчеркивается ключевая роль институциональных факторов в активном привлечении прямых иностранных инвестиций (ПИИ). Анализируются результаты опросов иностранных инвесторов, проведенных ведущими организациями, такими как мировая консалтинговая компания Kearney (*Индекс уверенности в прямых иностранных инвестициях Kearney*) и Всемирный банк (*2019 Глобальный индекс конкурентоспособности (ГИК)*), чтобы выяснить, какие факторы существенно влияли на инвестиционные решения в последние годы. На основе этого анализа были разработаны необходимые предложения и рекомендации с целью повышения инвестиционной привлекательности страны.

Ключевые слова: ПИИ, Институты, Институциональные факторы, Индекс уверенности в прямых иностранных инвестициях Kearney, Глобальный индекс конкурентоспособности 2019 года.

Kirish. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) tobora zamonaviy global dunyoda iqtisodiy o'sish va rivojlanishning muhim omili bo'lib bormoqda. O'zaro bog'langan va raqobatbardosh global bozorda mamlakatlar o'rtasida yangi ish o'rinlarini yaratish, texnologiyalar transferi, infratuzilmani rivojlantirish va umumiy iqtisodiy farovonlik uchun katalizator sifatida qaralayotgan TTXIni jalb qilish uchun tinimsiz kurash davom etmoqda. TTXI shunchaki kapitaldan tashqari o'zi bilan mamlakatning iqtisodiy asoslarini sezilarli darajada mustahkamlashi mumkin bo'lgan bebaho bilim, ko'nikma va tajribani olib kelishi unga bo'lgan raqobatni kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Mamlakatlar TTXI jalb qilish uchun kurashayotganda, ularning muvaffaqiyatining eng muhim omili bo'lib barqaror, shaffof hamda bashoratli muhitni ta'minlab beruvchi rasmiy institutlarning sifat darajasi namoyon bo'ladi.

Institutlar mamlakatning iqtisodiy tizimini shakllantiradigan qonunchilik, tartibga soluvchi va ma'muriy asoslarni o'z ichiga oladi. Ular barqarorlik, shaffoflik va bashoratlilikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi hamda bu omillar investorlarning qarorlariga bevosita ta'sir qiladi. Institutsional muhitni muvaffaqiyatli tashkil etgan mamlakatlar innovatsiyalar va texnologik yutuqlarni qo'llab-quvvatlagan holda, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantiradigan xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yarata oladi.

Adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda TTXI va institutlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, A. Benassy-Kere va boshqalar¹ institutlarning TTXIni jalb qilishga ta'sir etuvchi uchta asosiy sabablarini aniqlashgan.

¹ Bénassy-Quéré, A., Coupet, M., Thierry, M. Institutional Determinants of Foreign Direct Investment. The World Economy. Vol. 30 (5). - 2007. – P. 764-782.

Nek va Kifer tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, mulk huquqi institutlari, masalan, ekspropriatsiyadan (*davlat hokimiyati tomonidan majburiy ravishda (haqini to'lab yoki to'lamasdan) mulkdan mahrum qilish*) himoya qiluvchi va mulkni xavfsiz o'tkazishni ta'minlovchi institutlar TTXI oqimi bilan ijobiy bog'liqdir².

Haydar o'z tadqiqotida barqaror siyosiy muhitga ega bo'lgan mamlakatlarda TTXI darajasi yuqori bo'lishini aniqlagan³.

La Porta va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda kuchli va samarali sud-huquq tizimiga ega bo'lgan mamlakatlar yuqori darajada TTXI jalb qilishini ko'rsatilgan⁴.

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish, tartibga solishning ilmiy-amaliy masalalari bo'yicha N. Oblamurodov, B. Valiyev, A. Kobilov, A. Vahobov va boshqalar⁵ chuqur izlanishlar olib borganlar. Ammo, olib borilgan tahlillarga asosan aytish mumkinki, O'zbekiston iqtisodiyotiga TTXI jalb qilishning institutsional tomonlari batafsil tadqiq etilmagan.

Ushbu maqolada biz Global boshqaruv bo'yicha konsalting kompaniyasi Kearney (*The Kearney Foreign Direct Investment Confidence Index*) hamda Jahon Banki (*2019 Global Investment Competitiveness (GIC) Survey*) tomonidan xorijiy investorlardan olingan so'rovlar natijasida so'nggi yillarda investorlar investitsion qarorlarni qabul qilishda qanday omillarga e'tibor berishayotgani tahlil qilgan holda, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha kerakli taklif va tavsiyalarni beramiz.

Asosiy qism. Global boshqaruv bo'yicha konsalting kompaniyasi Kearney tomonidan 2023-yilda o'tkazilgan global 1000 ta kompaniyalarining bosh direktorlari, moliyaviy direktorlari va boshqa top-menejerlarining mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy va tartibga solish tizimidagi o'zgarishlarning ularning TTXI bo'yicha qarorlariga ta'sirini kuzatuvchi yillik so'rov – "Kearney to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishonch indeksi" ma'lumotlariga ko'ra, ketma-ket ikkinchi yil hukumat tomonidan tartibga solishning shaffofligi, texnologik va innovatsion imkoniyatlar, soliq stavkalari va soliq to'lovlarining qulayligi investorlar tomonidan TTXI qayerda amalga oshirishni tanlashda asosiy uch omil bo'lgan⁶ (*1-rasmga qarang*).


² Knack, S., & Keefer, P. (1995). Institutions and economic performance: Cross-country tests using alternative institutional measures. *Economics & Politics*, 7(3), 207-227.

³ Haidar, J. I. (2018). Political stability and foreign direct investment: Evidence from developing countries. *Economic Modeling*, 68, 301-307.

⁴ La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1997). Legal determinants of external finance. *The Journal of Finance*, 52(3), 1131-1150.

⁵ Oblamurodov N. N. Tўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг назарий асослари ва устувор йўналишлари: Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008. 14 б // Валиев Б. Б. Миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлашда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2017. 23-24 б.

⁶ <https://www.kearney.com/service/global-business-policy-council/foreign-direct-investment-confidence-index>



1-rasm. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yo'nalishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillar (foizda)⁷


So'rov natijalariga ko'ra, TTXI yo'nalishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillar hukumatning samarali siyosatiga tegishli institutsional omillar hisoblanadi. 2023-yilda tanlangan eng muhim yuqoridagi 10 ta omillardan 8 tasi institutsional omillar bo'lib, investorlar qayerga investitsiya kiritish qarorini qabul qilishda mamlakatlarning institutsional salohiyatiga yuqori e'tibor qaratayotganini ko'rishimiz mumkin.

Yevropo va AQShda joylashgan sarmoyadorlar uchun TTXIni qayerga yo'naltirishni tanlashda muhim omillar hukumat tomonidan tartibga solishning shaffofligi va korrupsiyaning yo'qligi hisoblansa, Osiyolik investorlar esa soliq stavkalari va soliq to'lovlarining qulayligini o'z qarorlarini qabul qilishda muhim deb bilishgan.

Shuningdek, so'rovda investorlar tomonidan rivojlangan bozorlarga nisbatan e'tiborning kamligining asosiy sababi (40 foiz) sifatida xomashyo va boshqa manbalarning mavjud emasligi yoki yetarli emasligi bo'lsa, siyosiy beqarorlik (38 foiz) investorlar TTXIni rivojlanayotgan bozorlarga joylashtirish bo'yicha qaror qilmasligining asosiy sababi sifatida qayd etilgan. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkin, rivojlanayotgan mamlakatga kirib kelayotgan TTXIga institutsional omillarning ahamiyati rivojlangan mamlakatlarga qaraganda juda yuqori hisoblanadi. Bunga sabab sifatida rivojlangan mamlakatlarda institutlarning sifat darajasi o'zi yuqori ekanligini ko'rsatish mumkin.

⁷ <https://www.kearney.com/service/global-business-policy-council/foreign-direct-investment-confidence-index>

Bundan rivojlanayotgan mamlakatlar xorijiy investitsiya jalb qilish bo'yicha raqobatda ko'proq institutsional omillarga e'tibor berishi kerakligini, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, qonunchilik va mulk huquqi himoyasini kuchaytirish hamda hukumatning samarali, shaffof va adolatli siyosatini qo'llab-quvvatlashlari kerakligini tavsiya qilinadi.



2-rasm. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilinmaganligining asosiy sabablari⁸

2019-yilgi Global investitsiya raqobatbardoshligi so'rovi Jahon Banki tomonidan o'tkazilgan bo'lib, transmilliy korporatsiyalarning (TMK) rivojlanayotgan mamlakatlardagi filliallarining rahbarlaridan olingan intervyular asosida shakllantirilgan. So'rovnoma ma'lumotlari 10 ta o'rta daromadli mamlakatlarda (Braziliya, Xitoy, Hindiston, Malayziya, Meksika, Nigeriya, Tailand, Turkiya va Vetnam) faoliyat yuritayotgan 2400 dan ortiq xorijiy investorlar bilan suhbat natijalarini o'z ichiga olgan⁹. Mazkur mamlakatlar dunyo aholisining yarmidan ko'pini, global YaIMning chorak qismini, jahon savdosining 20 foizini tashkil etadi.

So'rovnoma savollari TTXI jalb qilishda muhim hisoblangan, xorijiy investorlarning investitsiya bo'yicha qarorlarida kuchli ta'sirga ega bo'lgan jihatlarni qamrab olgan:


- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ta'sir etuvchi omillar;
- investitsiya kiritishda huquqiy va hukumat tomonidan tartibga solish to'siqlari;
- investitsiyalarni himoya qilish;
- investitsiyalarni rag'batlantirish.

So'rov ishtirokchilari umumiy olganda siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlikni o'zlarining investitsiya qarorlarini bildiruvchi eng muhim omillar deb hisoblashsa-da, so'rov ma'lumotlari mezbon mamlakatlarning xorijiy investorlar va xususiy sektorga nisbatan siyosiy pozitsiyasi muhim ekanligini tasdiqlaydi. Respondentlarning 42 foizi mezbon mamlakatlarning huquqiy va tartibga soluvchi muhitini ushbu mamlakatlarga sarmoya kiritish qarorlari uchun "juda muhim" deb hisoblagan (3-rasmga qarang). Ushbu ko'rsatkichga ko'ra, huquqiy va tartibga soluvchi muhitlar jismoniy infratuzilma, past mehnat va ishlab chiqarish xarajatlari kabi omillarga nisbatan muhim deb hisoblangan.

⁸ <https://www.kearney.com/service/global-business-policy-council/foreign-direct-investment-confidence-index>

⁹ <https://microdata.worldbank.org/index.php/catalog/3804>

Savol: Mezbon mamlakatga investitsiya kiritish bo'yicha qaror qabul qilishda quyudagi omillar qanchalik muhim hisoblanadi?




3-rasm. Mezbon mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim omillari (respondentlarining foiz ulushida)¹⁰

Investitsiya kiritishda huquqiy va hukumat tomonidan tartibga solish to'siqlari bo'yicha to'liq ma'lumot olish uchun so'rovnomada respondentlarga turli huquqiy va hukumat tomonidan tartibga solish muammolari ularning faoliyatiga qanday darajada to'sqinlik qilayotgani haqida so'ralgan. 56 foiz respondentlar hukumat tomonidan investitsiyalarning tasdiqlash jarayonlari ularning faoliyatida eng asosiy muammo ekanligini bildirgan bo'lsa, 44 foiz respondentlar narx, texnologiya va mahsulotga qo'yilgan cheklolarni asosiy to'siq sifatida keltirgan. Yuqoridagilardan tashqari ko'plab investorlar tomonidan ma'lum sohalarga yoki egalik ulushlariga o'rnatilgan TTXI cheklolari, xorijiy mehnat kuchiga cheklolar va qo'shma korxonalar tashkil etishga qo'yilgan talablar ularning olib borayotgan faoliyatiga asosiy to'siq sifatida baholangan.

Investitsiyalarning himoyalanganlik darajasining investorning xatti-harakatlariga nisbatan ahamiyatini tushunish uchun turli siyosiy qarorlar natijasida yuzaga keladigan risklarning ularning qarorlariga qanday ta'sir qilishini so'rashgan. So'rov natijalariga ko'ra, 66 foiz investorlar mezbon mamlakatda siyosiy qarorlar natijasida yuzaga keladigan risklarning mavjudligida mavjud investitsiyalarni olish chiqib ketish yoki rejalashtirilgan investitsiyalarni bekor qilishga tayyor ekanligini bildirishgan. Ekspropriatsiya xavfi va hukumat tomonidan shartnomani buzish investorlar tomonidan eng salbiy qaraladigan risklar hisoblanadi. Mazkur risklarning mavjudligining o'zi mos ravishda 47 va 39 foiz investorlarning mavjud investitsiyalarni olib chiqib ketish yoki rejalashtirilgan investitsiyalarni bekor qilishiga sabab bo'ladi.

Savol: Mezbon mamlakatda quyidagi hodisalarning risklari sizning investitsiya holatingizga qanday ta'sir qiladi?

¹⁰ 2019-yilgi Global investitsiya raqobatbardoshligi so'rovi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.




4-rasm. Xorijiy investorlar tomonidan siyosiy risklarga nisbatan xatti-harakatlar¹¹

Investorlardan olingan so'rov natijalariga ko'ra, mezbon mamlakatlardagi Investitsiyalarni rag'batlantirish agentliklarining (Agentlik) mavjudligi va uning faoliyati TTXI jalb qilish va ushlab qolishda juda muhim ahamiyatga ega. Investorlarning qariyb 61 foizi Agentlik tomonidan taklif etilayotgan xizmatlardan kamida bittasining bo'lishini "juda muhim" deb hisoblasa, 28 foizi "muhim" ekanligini takidlagan. Mamlakatdagi ishbiarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha harakatlar (75 foiz investor muhim deb hisoblagan) va investitsiya kiritishdan oldin ma'lumotlar taqdim etish (71 foiz investor muhim deb hisoblagan) investorlar tomonidan Agentlik ko'rsatishi kerak bo'lgan eng muhim xizmatlar sifatida sanab o'tilgan. Umuman olganda, barcha Agentlik xizmatlari so'rovda qatnashgan investorlarning kamida uchdan ikki qismi tomonidan ularning faoliyati uchun "juda muhim" yoki "muhim" deb hisoblangan (5-rasmga qarang).

Savol: Mezbon mamlakatning Investitsiyalarni rag'batlantirish agentligi tomonidan taqdim etiladigan quyidagi xizmatlar sizning kompaniyangiz uchun qanchalik muhim?

¹¹ 2019-yilgi Global investitsiya raqobatbardoshligi so'rovi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



5-rasm. Investitsiyalarni rag'batlantirish agentligi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarning muhimligi¹²

Xulosa. Global boshqaruv bo'yicha konsalting kompaniyasi Kearney (*The Kearney Foreign Direct Investment Confidence Index*) hamda Jahon Banki (*2019 Global Investment Competitiveness (GIC) Survey*) tomonidan xorijiy investorlardan olingan so'rovlar natijalarini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin.

"Kearney To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishonch indeksi" ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda TTXI qayerga yo'naltirish bo'yicha qarorlarda investorlar tomonidan eng muhim deb hisoblangan 10 ta omildan 8 tasi institutsional omillar bo'lib, investorlar mamlakatdagi institutlarning samaradorligi va sifatiga yuqori e'tibor qaratayotganini ko'rishimiz mumkin. Amerika va Yevropada joylashgan investorlarda boshqa mintaqalarda joylashgan investorlarga qaraganda institutsional omillar ularning qarorlarida yuqori baholanadi. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun faol TTXI jalb qilishda siyosiy barqarorlik va hukumat tomonidan tartibga solish muhiti e'tibor berilishi kerak bo'lgan jabhalar hisoblanadi. Mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishda hukumat tomonidan tartibga solishning shaffofligi ta'minlashi, texnologik va innovatsion imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni hamda barcha uchun qulay hamda rag'bat yarata oladigan soliq tizimini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Jahon Banki tomonidan o'tkazilgan 2019-yilgi Global investitsiya raqobatbardoshligi so'rovi natijalari TTXI faol jalb qilishda institutsional omillarning muhim ahamiyatini ko'rsatib berdi. Siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda shaffof va barcha uchun teng huquqiy va samarali hukumat tomonidan tartibga solish muhitini shakllantirish TTXI jalb qilishda juda muhim hisoblanadi.

Hukumat tomonidan investitsiyalarning tasdiqlash jarayonlari hamda ma'lum sohalarga yoki egalik ulushlariga o'rnatilgan TTXI cheklovlari xorijiy investorlar

¹² 2019-yilgi Global investitsiya raqobatbardoshligi so'rovi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

faoliyatida to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar bo'lgan. Hukumat investitsiya loyihalarini tasdiqlash jarayonlarini soddalashtirish hamda ma'lum sohalarga yoki egalik ulushlariga o'rnatilgan TTXI cheklovlarini kamaytirish orqali qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan islohotlarga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Investorlar ekspropriatsiya, hukumat tomonidan shartnomani buzish, qonunchilikdagi to'satdan, salbiy o'zgarishlar singari risklarga nisbatan rejalashtirilgan investitsiyalarni kechiktirish yoki bekor qilish, hattoki, kiritilgan investitsiyalarni olib chiqish ketishga moyil hisoblanadi. Hukumat mustaqil sud tizimini mustahkamlash, mulk-huquqi himoyasi hamda hukumat tomonidan tartibga solishning shaffofligini ta'minlashga qaratilgan institutsional islohotlarni kuchaytirishi juda muhim hisoblanadi.

Mezbon mamlakatdagi Investitsiyalarni rag'batlantirish agentliklarining (Agentlik) mavjudligi va uning faoliyati TTXI jalb qilish va ushlab qolishda juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatilgan. TTXI faol jalb qilishga intilayotgan hukumatlar Agentlik tomonidan taklif etilayotgan xizmatlarni xorijlik investorlarga samarali va ishonchli tarzda yetkazishi zarur. Ma'lumotlarni taqdim etish, faoliyatni boshlash uchun ko'maklashish, mamlakatning nisbiy ustunliklarini ko'rsata olish hamda uni keng global investorlar oldida marketing qilish singari investitsiyalarni kiritishdan oldingi bosqichdagi xizmatlar hamda mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitini tobora yaxshilab borish, operatsion muammolar va shikoyatlarni samarali hal qilib berish, investorlar uchun personallashtirilgan xizmatlarni taqdim etish singari investitsiyalar kiritilganidan keyingi xizmatlarni har doim yaxshilab va investorlarning ehtiyojlariga moslashtirib borish juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bénassy-Quéré, A., Coupet, M., Thierry, M. Institutional Determinants of Foreign Direct Investment. *The World Economy*. Vol. 30 (5). - 2007. – P. 764-782.
2. Knack, S., & Keefer, P. (1995). Institutions and economic performance: Cross-country tests using alternative institutional measures. *Economics & Politics*, 7(3), 207-227.
3. Haidar, J. I. (2018). Political stability and foreign direct investment: Evidence from developing countries. *Economic Modeling*, 68, 301-307.
4. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1997). Legal determinants of external finance. *The Journal of Finance*, 52(3), 1131-1150.
5. Обломуродов Н. Н. Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг назарий асослари ва устувор йўналишлари: Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008. 14 б.
6. Валиев Б. Б. Миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлашда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2017. 23-24 б.
7. <https://www.kearney.com/service/global-business-policy-council/foreign-direct-investment-confidence-index>
8. <https://microdata.worldbank.org/index.php/catalog/3804>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

